

# **SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI**

## **BOSHQARISH.**

**Namangan muhandislik texnologiya instituti**

**i.f.n Dedajanov.B**

**Namangan muhandislik texnologiya instituti magistranti**

**Murodaliyeva. M**

**Annotatsiya:** Innovatsiya va innovatsion texnologiyalar bugungi kunda iqtisodiyot, sanoat va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tushunchalar, yangi g'oyalar, mahsulotlar yoki jarayonlar yaratishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Innovatsiyalar, mavjud bilimlarni qo'llash yoki yangi bilimlarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion strategiya

## **MANAGEMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.**

**Associate Professor of Namangan Institute of Engineering Technology Dedajanov B.N**

**Namangan Institute of Engineering Technology,**

**2nd stage master's student M.I. Murodaliyeva**

**Annotation:** Innovation and innovative technologies play an important role in the economy, industry and Social Development today. These concepts refer to activities aimed at creating new ideas, products or processes. Provides economic growth through innovation, the application of existing knowledge, or the development of new knowledge.

**Key words:** Innovation, innovative activity, innovative strategy.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novation” so'zidan olingan bo'lib “yangilanish” ( yoki “ o'zgarish”) “ in” qo'shimchasi esa lotinchadan “ yo'nalishida” deb tarjima qilinadi agar buni yaxlit “ innovatio” ko'rinishida tarjima qilsak- “ o'zgarishlar yo'nalishida” deb izohlanadi.Innovation tushunchasi birinchi bo'lib IXX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lди.

“Innovatsiya” tushunchasi o’zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar” ni tahlil qilish iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o’zgarishlar natijasida XX asrning boshida Avstraliyalik va Amerikalik iqtisodchi Yozef Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900 – yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo’llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. «Innovatsiyalar» atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Yozef Shumpeter XX asrning birinchi o’n yilligida kiritgan. O’zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli asarida (1911y.) Y. Shumpeter ilk bora rivojlanishda o’zgarishlarning yangi kombinatsiyalari masalalarini (ya’ni innovatsiya masalalarini) ko’rib chiqdi va innovatsion jarayonga to’liq tavsif berdi. Y. Shumpeter rivojlanishdagi besh xil o’zgarishni ajratib ko’rsatdi:

- 1) yangi texnika, texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta’midotidan foydalanish;
- 2) yangi xususiyatlarga ega bo’lgan mahsulot joriy qilish;
- 3) yangi xomashyodan foydalanish;
- 4) ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning moddiy-texnika ta’midotida o’zgarishlar;
- 5) yangi sotuv bozorlarining paydo bo’lishi.

U iqtisodiyotda novator-tadbirkor markaziy figuraga aylanishini isbotlab berdi. Y. Shumpeterga ko’ra, innovatsiya bu—iste’mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o’zgarishlardir.

Innovatsiyaga har qanday turdagи yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar ixtiro kashfiyotlardan farq qiladi.

Innovatsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Mahsulot innovatsiyasi: Yangi yoki yaxshilangan mahsulotlarning ishlab chiqarilishi.

2. Jarayon innovatsiyasi: Ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarida yangiliklar kiritish.

3. Biznes-model innovatsiyasi: Yangi biznes-modellarni joriy etish orqali foyda olishning yangi yo'llarini topish.

### **“Innovatsiya” tushunchasining tasnifi (1-jadval)**

Nº	Konseptsiyaning ta'rifi.	Manba
1	Innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgab yoki shaxsiy extiyojlar uchun foydalilaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy- iqisodiy samaraga erishishnni ta'minlaydigan yangi ishlanma	O'zbekiston respublikasining 24.07.2020 yilidagi O'RQ- 630 raqamli “Innovatsion faoliyat to'g'risida” gi qonuni ( <a href="https://lex.uz/ru/docs/491391">https://lex.uz/ru/docs/491391</a> ) (1-bob 3- modda)
2	Innovatsiya (ing. Innovationas- kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni taminlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kami sohalardagi yangiliklar	O'zbekiston milliy ensiklopediyasi I harfi. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 199-b
3	Bozorda g'oyadan tayyor mahsulotga qadar to'liq amalga oshirilgan jarayon	Cooke I., Mayers P Intrduction to innovation and technology transfer. Boston: Artech House, inc., 1996
4	Innovatsiya - bu iste'mol tovarlarining yangi turlarini, yangi ishlab chiqarish va transport vositalarini, bozorlarni va sanoatda tashkil etish shakllarini joriy etish va ulardan foydalanan maqsadidagi o'zgarish	Шумпетер И. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982
5	Innovatsiya - bu innovatsion mahsulotlarni yaratish va sotish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan faoliyat	«Основные направления политики Российской Федерации в области развития инновационной системы на период до 2010 года» (утв. Правительством РФ 05.08.2005 N 2473п-П7)
6	Innovatsiya - boshqaruv ob'ektini o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa samaralarni olish uchun innovatsiyani joriy etishning yakuniy natijasidir.	Фатхутдинов Р. Инновационный менеджмент: учебник. 2-е изд. М.: ЗАО «Бизнес-школа «Интел-синтез», 2008
7	Innovatsiyalar - bu aniq ijtimoiy ehtiyojlarni	Соколов Д. В., Титов А. Б.,

	qondiradigan va bir qator samaralar beradigan, printsipli jihatdan yangi o'zgartirilgan mahsulotni yaratish va rivojlantirishning yakuniy natijasidir.	Шабанова М. М. Предпосылки анализа и формирования инновационной политики. СПб.: ГУЭФ, 1997
9	Innovatsiya yangi g'oyalarning integratsiyasi tufayli modernizatsiya, yangi jarayonlarni, mahsulot, xizmat turini yaratish imkonini beradigan korxonaning texnologik rivojlanishini ta'minlaydi.	Taraxtiyeva G. I. Innovatsion menejment. Toshkent.: Fan va texnologiya. 2013, 9-b
10	Innovatsiyalar- bu yangi yoki takomillashtirilgan tovarlar (xizmatlar), shuningdek yangi sifatga ega tovarlar yoki xizmatlardur.	Norov A. E Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jural. №1, yanvar- fevral, 2020-yil

Innovatsion faoliyat quyidagilarga asoslanadi:

- 1) Innovatsiyalarni an'anaviy, oddiy ishlab chiqarish ustunligi tamoyili;
- 2) Innovatsion ishlab chiqarishning tejamkorlik tamoyili (tijorat samaraga erishish ko'zda tutiladi);
- 3) Moslashuchanlik tamoyili (har bir yangi g'oya uchun mustaqil innovatsion tuzilma tashkil etiladi, lekin u o'z navbatida boshqa muammolarni hal qilish uchun mutlaqo mos kelmasligi mumkin);
- 4) Majmuavoy tamoyil (masalan, bирgina yorqin kashfiyot unga bog'liq bo'lган bir nechta kichik innovatsiyalarni paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin).

Innovatsion faoliyatni boshqarish qoidalarini va uni qo'llash texnologiyasini bilish tegishli strategiya va taktikani to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Har qanday innovatsion faoliyatning samaradorligi tashkilotni ushbu yo'nalishda rivijlantirishni taqozo etadi. Innovatsion rivojlanishni boshqarish mazmunini quyidagi qoidalar bilan ifodalsh mumkin:

- Innovatsiyalarni oldindan ko'rish va rivijlantirish kerak;
- Yangiliklarni tezlashtirish va joriy etish zarur;
- Innovatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish kerak;
- Innovatsion jarayonlarni ma'lum darajada to'xtatib turish va silliqlashtirilishi mumkin;

## **“Innovatsion faoliyat” tushunchasining tasnifi (2-jadval)**

<b>№</b>	<b>Konseptsiyaning ta’rifi.</b>	<b>Manba</b>
1	Innovatsion faoliyat - yangi ishlanmalarni tashkil etish shuningdek ishlab chiqarish sohasidaularning o’tkazilishini va amalga oshirilishini ta’minalash bo'yicha faoliyat	O’zbekiston respublikasining 24.07.2020 yilidagi O’RQ- 630 raqamli “Innovatsion faoliyat to’g’risida” gi qonuni ( <a href="https://lex.uz/ru/docs/491391">https://lex.uz/ru/docs/491391</a> ) (1-bob 3-modda)
2	Innovatsion faoliyat - bu tugallangan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalarini yoki boshqa fan va texnika yutuqlarini bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga joriy etishga qaratilgan jarayon.	Постановление Правительства РФ от 24.07.1998 N 832 "О Концепции инновационной политики Российской Федерации на 1998 - 2000 годы"
3	Innovatsion faoliyat - mahsulot (tovarlar, xizmatlar) assortimentini kengaytirish va yangilash va sifatini yaxshilash, keyinchalik joriy etish va samarali sotish bilan ularni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat.	Основы инновационного менеджмента. Теория и практика: Учебник / Л.С. Барютин и др.; под ред. А.К. Казанцева, Л.Э. Миндели. 2-е изд. перераб. и доп. — М.: ЗАО «Издательство «Экономика », 2004. - 518 с
4	Innovatsion faoliyat - bu, birinchi navbatda, korxonada to'plangan bilimlarni, shuningdek, korxonada mavjud bo'lgan texnologiya va uskunalarini tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyati majmuasi.	Гершман М.А. Инновационный менеджмент: учеб. пособие. - М.: Маркет ДС, 2010. - 200 с.
5	Innovatsion faoliyat-bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalaridan ilmiy maktablarni rivojlantirish, umuman iqtisodiyotda, tarmoqlarda va alohida korxonalarda	Инновационный менеджмент: учебное пособие / Г. В. Исмагилова, О. Г. Щемерова, Н. Р. Кельчевская. –

	progressiv o'zgarishlarni ta'minlash, korxonalar va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, sifatli mahsulotlar assortimentini kengaytirish, mahsulot va xizmatlarni tijorat maqsadlarida sotish usullarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir	Екатеринбург: УрФУ, 2012. – 175 с.
6	Innovatsion faoliyat to'plangan texnologiyalar, bilimlar va uskunalarini tijoratlashtirishga mo'ljallangan texnologik, ilmiy, tashkiliy va moliyaviy chora tadbirlar majmuasi.	Norov A. E Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jural. №1, yanvar- fevral, 2020-yil

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tamoyillarining umumiyligini xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

xar qanday tashkilotrivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan tamoyillarning umumiyligi;

boshqarish obyeklari rivijlangan sari doimiy takomillashib boriladigan tamoyillar o'zgarishi.

Korxonaning rivojlanish qonuniyatları menejment tamoyillari bilan belgilanadi va uning a'zolari harakati uchun motivatsiya yaratadi, shuningdek korxonaning innovatsion rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladi.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tamoyillari innovatsion faoliyat mazmunini belgilaydigan qoidalar hisoblanadi.

Tamoyillardan maqsadga muvofiq foydalanish faoliyat natijadorligi uchun zaruriy zamin yaratadi va innovatsiyalardan salbiy natijalar olish ehtimolini kamaytiradi.

Innovatsion strategiya tamoyillari korxonaning innovatsion faoliyatining asosi bo'lib uni rivojlantirish yo'naliishlarini belgilab beradi. Korxona innovatsion strategiyasini quidagi tamoyillarini sanab o'tish mumkin.

- Strategiyani ishlab chiqishda ilmiy va tahliliy bashorat qilish tamoyili;
- Inson omilining ustunligi tamoyili;
- Korxona strategiyasi va mavjud resurslarning muvofiqligi tamoyili;

- Korxonaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni tahlil qilish tamoyili;
- Koxonada strategik bosqaruv tizimini tashkil etish tamoyili;
- Korxona strategiyasi va umumiy boshqaruv taktikasining muvofiqligi tamoyili;
- Mavjud texnologiyalar nuqtai nazaridan korxona strategiyasining maqsadga muvofiqligi tamoyili;

Yuqorida keltirilgan tamoyillar tashkilotning innovatsion strategiyasini boshqarish uchun umumiy talablar, qoidalar bo'lib xizmat qiladi, ularning eng muhimlari uchta guruhga birlashtirishimiz mumkin;

- 1) Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tizimini tashkil etish tamoyillari (bashoratlash, muvofiqlik, ilg'orligi, uy'unlik tamoyili);
- 2) Korxonada innovatsion menejment tizimining kelgusida rivojlanishiga yo'nalish beradigan tamoyillar (moslashuvchanlik, bog'liqlik, uzlucksizlik va boshqalar);
- 3) Tashkilotdagi innovatsion amaliyot subyektlari bilan o'zaro munsabatlarning mohiyatini belgilaydigan tamoyillar, shu jumladan sinergetizm, partisipativ va antropologik realism tamoyillari.

Shunday qilib, tashkilotning innovatsion rivojlanishi bilan birga xodimlarning innovatsion salohiyatini takomillashtirish jarayoni amalga oshiriladi, ular innovatorlarni doimiy ravishda o'qitish va malakasini oshirishni talab qiladi.

Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan korxonalar raqobatbardosh bo'lib, bozorda yetakchi kompaniyalarga aylanadilar. Sifatli va o'z vaqtida yaratilgan innovatsiyalarga asoslangan raqobat korxonalarning faoliyat davomiyligining muhim sharti sanaladi hamda yangi ilmiy natijalarni rivojlantirish va tijoratlashtirishda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Korxonada innovatsiyalarni samarali boshqarish uchun rejalshtirilayotgan o'zgarishlarni xodimlarning kutayotgan natijalari bilan taqqoslash zarur,

korxonaning innovatsion salohiyati mavjudligi, shuningdek, barcha subyektlarni bo'lajak o'zgarishlarga jalb qilinganligi juda muhimdir.

Agar innovatsion jarayonning ma'lumbosqichi korxonaning tarkibiy ko'rsatkichlarida jiddiy o'zgarishlarni talab qilsa, bu avvalambor xodimlarning xatti-harakati ular va innovatsiyalar o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash ularni o'qitish va yangiliklarni qo'llashni o'rgatish orqali bartaraf etiladi. Ushbu tarayonda tashkilot- ijtimoiy tizim bo'lib, u tashqi kuchkar ta'siri ostidami yoki birdaniga hodimlarning yangiliklarga moyilligi ortishi natijasidami korxona faoliyatidagi muammolarni oldindan tahlil qilish orqali ongli ravishda, shuningdek ushbu muammolarni yechimini toppish uchun innovatsiyalarni joriy etish jarayonini tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gimush, R. I., & Matmurodov, F. M. (2008). Innovatsion menejment. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2.
2. Абдуллаев, А.М. и др. (2016). Перспективы развития свободных экономических зон и условия инвестиционной привлекательности в реальные сектора экономики Республики Узбекистан. Новый университет. Серия: Экономика и право. 12(70). – С. 20-24. – Doi: <https://dx.doi.org/10.15350/2221-7347.2016.12>
3. Гаибназарова, З. Т. (2018, September). Модернизация: управление инновациями и управленческие инновации. In История управленческой мысли и бизнеса. Управленческий труд и роли менеджеров: прошлое, настоящее, будущее: материалы XIX Международной конференции. 21-22 сентября 2018 г (р. 79).
4. Гунин, В. Н., Баранчеев, В. П., Устинов, В. А., & Ляпина, С. Ю. (1999). Управление инновациями: 17-модульная программа для менеджеров «Управление развитием организаций». Модуль 7. М.: ИНФРА-М, 328.

5. Давлятова, Г. М. (2021). О некоторых направлениях развития промышленности Узбекистана на перспективу. Экономика и бизнес: теория и практика, 10-1. С. 101-105.